

## CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM MUTAXASISLARINING KASBIY MAHORATINI SHAKLLANTIRISH.

U.Q.Maqsudov

FarDU p.f.f.d (PhD), v.b.dotsent,

S.A.Qo'chqorov

FarDU mustaqil izlanuvchisi.

**Annotsiya:** Ushbu maqolamda chaqiriqqacha harbiy ta'lim mutaxasislarining kasbiy mahoratini shakllantirishda kursantlarning harbiy bilimga ega bo'lishi shaxs sifatida shakllanishida muxim a'xmiyatga ega. Chunki, harbiy bilim kasbiy mahoratini shakllantirish kursantlarda mas'uliyat, intizom xissini shakllantirish bilan birga jismonan va ruhan chiniqtiradi, irodasini charxlaydi. Kursantlarni har tomonlama barkamol, vatanparvarlik ruxida tarbiyalaydi. Harbiylarda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rioya qilish, muammoni avvalicha davom ettirish va bir xil talab qo'yish muvafaqqiyat qozonishning eng muhim shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qolaversa, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, va bilim, kasbiy mahoratini shakllantirishga ishtiyok uyg'otadi. Mana shu tuyg'ularning asosi harbiy ta'lim jarayonida shakllanadi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, tarbiya, pedagogik, texnologiya, axloq, harbiy, kursant, bilim, ko'nikma, ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik, mas'uliyat, intizom, qurol-yarog', jangovar, harbiy xizmatchi, sensor, intellektual, komandir, mahorat, ofitser bo'linma, rahbarlik.

**Аннотация :** В данной статье в формировании профессиональных навыков специалистов военного образования до призыва большое значение в формировании личности имеют военные знания курсантов. Потому что формирование профессиональных навыков военного знания, наряду с формированием у курсантов чувства ответственности и дисциплины, тренирует их физически и морально, обостряет волю. Готовит курсантов в всестороннем, патриотическом духе. Одно из важнейших условий успеха военного образования – быть последовательным, держать проблему в самом начале и ставить одно и то же требование. Кроме того, осознание национальной идентичности, патриотизм, стремление развивать знания и профессиональные навыки. Основа этих чувств формируется во время военной подготовки.

**Ключевые слова:** Образование, подготовка, педагогика, техника, мораль, военный, курсант, знания, умения, духовно-нравственные, патриотизм, ответственность, дисциплина, оружие, строевой человек, военнослужащий, сенсор, интеллектуал, командир, мастерство, офицерское подразделение, руководство.

**Annotation:** In this article, in the formation of the professional skills of military education specialists before the draft, the military knowledge of the cadets is of great importance in the formation of a person. Because the formation of professional skills of military knowledge, along with the formation of a sense of responsibility and discipline in cadets, trains them physically and mentally and sharpens their will. Trains cadets in a comprehensive, patriotic spirit. One of the most important conditions for success in military

*education is to be consistent, to keep the problem at the beginning and to set the same demand. In addition, awareness of national identity, patriotism, and the desire to develop knowledge and professional skills. The basis of these feelings is formed during military training.*

**Key words:** *Education, training, pedagogy, technology, morals, military, cadet, knowledge, skills, spiritual and moral, patriotism, responsibility, discipline, weapons, combatant, military serviceman, sensor, intellectual, commander, skill, officer unit, leadership.*

Yangi O'zbekistonimizda ayni kunlarda ta'lim-tarbiya jarayonini zamon talabiga javob berishiga va ularni yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishga ahamiyat bermoqda. Qadimgi Yunonistonning mashhur faylasuflari Suqrot, Aflotun, Arastu, Demokrit va boshqalar o'z g'oyalarida bolaga harbiylik ta'limi va uni tarbiyalash masalalariga jiddiy e'tibor berilganlar. Tarbiya-bu harbiylar hayotida hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot-dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni, ofitserlar shaxsiga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarini yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi va o'zining qoidalarini alohida belgilaydi. Tarbiyada izchillik juda muhimdir. Harbiylarda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rioya qilish, muammoni avvalicha davom ettirish va bir xil talab qo'yish muvaffaqiyat qozonishning eng muhim shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Afsuski, amalda ba'zan harbiy qo'mondonning talablarini qo'llab-quvvatlaydigan emas, balki harbiylarga teskari ta'sir ko'rsatadi. Har bir harbiy xizmatchi o'z g'oyasiga bog'liq muammolarni to'g'ri hal qilmog'i, yutuqlarni esa keyingi xatolarni sodir etmasligi shart deb bilish kerak. Harbiy vaziyatlar, ya'ni jangovar holatda tinchlik vaqtida eng oqil va to'g'ri yo'naltirilamog'i darkor. Bunda, harbiy mahoratning o'zni beqiyosdir. Harbiy mahoratning kursantning o'z mutaxassisligini egallash va uni amalga oshirish jarayonidagi yuqori darajadagi faoliyatidir. Harbiy mahorat quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

**I. Ichki asoslar:**

1. Bilim.
2. Ko'nikma.
3. Malaka.
4. Umumiy dunyoqarash.
5. Ma'naviy-axloqiy xislatlar.
6. Ruhiiy xislatlar.

**II. Tashqi asoslar:**

1. To'g'ri, aniq va ongli harakatlar.
2. Bilim, ko'nikma va malakalarni ongli ravishda qo'llash.
3. Qurol-yarog' va texnikani samarali va ijodiy qo'llash.

Bilim - borliq, voqea va hodisalarning, ularning aloqa va munosabatlarining inson ongida namoyon bo'lishidir. U insonning borliqni, boshqa odamlar tomonidan topilgan ma'lumotlar, faktlarni o'zlashtirishi natijasi hisoblanadi. Bilimlar inson ongida, xotirasida tushunchalar, qarashlar, tasavvurlar, ular o'rtasidagi aloqadorlik tarzida saqlanib keladi. Shu

nuqtai nazardan qaraganda har bir kursant chuqur, har tomonlama keng bilimlarga ega bo'lishi va bu bilimlarni har qanday sharoitda qo'llay olishga tayyor bo'lishi zarur.

Ko'nikmalar - ish-harakatlarning puxta egallanganligi, avtomatlashgan tarzda bajarilishidir. Ma'lum bir sohada ko'nikmalarga ega bo'lgan inson o'z diqqatini asosiy narasaga qarata oladi, o'z faoliyatiga ijodiy munosabatda bo'la oladi hamda yuqori sifat va miqdor ko'rsatkichlari bilan harakat qila oladi. Ko'rsatkichlari bilan harakat qila oladi. Askar uchun jangovar texnikaga xizmat ko'rsatish, o'z qurolini qo'llash, turli xizmat vazifalarini bajarish, kuzatish va boshqa ko'nikmalar muhimdir. Ko'nikmalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sensor ko'nikmalar sezgi organlari (ko'rish, eshitish, hid bilish va boshqalar) faoliyatiga taalluqlidir. Masalan, pribor ko'rsatkichlarini olish, masofani aniqlash, moddani rangiga, hidiga qarab aniqlash, topokartalarni o'qish va hokazo.

2. Harakatli ko'nikmalar turli harakatlarni egallash natijasidir. Ular texnikani boshqarish va qurol-yarog'ni jangovar qo'llash uchun zarurdir. Masalan, bu ko'nikmalar mexanik-haydovchi harakatida, operator harakatida va hokazolarda ko'rinadi.

3. Aqliy ko'nikmalar intellektual masalalarni hal etishda, masalan, qabul qilingan axborotni tahlil qilish, qo'yilgan vazifani tushunish, vaziyatga baho berish, qaror ishlab chiqish va qabul qilish va hokazolarda. Ularaqliy faoliyat sanalib, uni samarali va tejimli qilishga olib keladi. Barcha sanab o'tilgan ko'nikmalar turli vazifalarni bajarsada, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har qanday mutaxassislikdagi kursant faoliyatida birlikda namoyon bo'ladi. Ko'nikmalar murakkablik darajasiga qarab ham tasniflanadi.

Murakkab malakalar- kursantning ta'lim jarayonida egallagan bilimi, ko'nikmalarini ijodiy qo'llay olish va harbiy faoliyatning murakkab vaziyatlarida yuqori natijalarga erisha olish imkoniyatidir. Ko'nikma tez-tez takrorlanib turuvchi sharoitlarda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Malaka esa insonga ko'nikmalarni yangi sharoitlarda qo'llashga imkon yaratib beradi. Ko'nikmadan farqli o'laroq, malaka inson ongining faolligini, o'z-o'zini nazorat qila olishni, turli vazifalarni bajarishning umumlashgan usullarini egallashni talab qiladi. Malakalarni shakllantirish bilim va ko'nikmalarni tobora murakkablashib boruvchi sharoitlarda qo'llash, shaxsiy tarkibning nazariy va amaliy tayyorgarligini doimiy uyg'un ravishda olib borishni talab qiladi. Harbiy pedagog kursantlarga ta'kidlashi lozimki, - harbiy mahoratini shakllantirish va rivojlantirishda komandir mahorati muhim rol o'ynaydi.

Komandir mahorati - ofitserning bo'linma, qismga rahbarlik qilish uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalar, xislatlarga asoslangan faoliyatining yuksak darajasidir. Komandir mahorati asosan uning rahbarlik va harbiy mutaxassislik san'atidan iborat bo'ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yakka va jamoa harbiy mahoratini shakllantirishda quyidagi shartlar muhim sanaladi:

- kursantlarda yuksak g'oyaviy, ma'naviy va axloqiy xislatlarni tarbiyalash;
- jamoani jiplashtirishga alohida e'tibor qaratish, kursantlar o'rtasida do'stona munosabatlarni tarbiyalash;
- umumiy faoliyatda yuksak natijalarga erishishga intilish;
- kursantlarni yakka va jamoa faoliyatini samarali amalga oshirish uchun o'z bilimlarini, ko'nikmalarini va malakalarini tinmay takomillashtirib borishga undash;
- tinchlik davrida va urush sharoitida kursantlarning tashabbus ko'rsatishi, o'z bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini ijodiy qo'llashi, faollik ko'rsatishi uchun sharoit yaratish; ta'lim va

tarbiyajarayonida kursantlarning qobiliyati, temperamenti va xarakteri xususiyatlarini hisobga olish;

- harbiy xizmatning turli sharoitlarida o'zlarining bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini to'la namoyon qila olishlari uchun kursantlarning hisiy-irodaviy turg'unligini mustahkamlash, birgalikda turli vazifalarni bajarish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Milliy istiqlol g'oyasi (Bakalavr bosqichi uchun darslik). - T.: Akademiya, 2005. - 368 b.
2. Pedagogika nazariyasi. X.Ibragimov, Sh.Abdullaeva. T.: Fan va texnologiyalar, 2008-yil.
3. Qo'chqorov S., & Azamatov, J. A. (2022). TA'LIM-TARBIYA TIZIMI TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(4), 200-204.
4. Qo'chqorov, S. (2022). YANGI PEDAGOGIK TEXOLOGİYALAR. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(11), 375-377.
5. Qo'chqorov S., & Azamatov, J. A. (2022). TA'LIM-TARBIYA TIZIMI TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(4), 200-204.
6. Mansurjonovich, M. B., & Axadjonovich, Q. C. S. (2022). BO 'LAJAK HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY MOSLASHUVCHANLIKNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. Pedagogical Sciences And Teaching Methods, 2(17), 176-179.
7. QO'CHQOROV S., & AZAMATOV, J. A. (2022). TA'LIM-TARBIYA TIZIMI TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(4), 200-204.
9. Аҳаджонович, Қ. С. (2023). “ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ” КОНСЕПСИЯСИ ВА УНИНГ ЁШЛАР ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 1041-1044.
10. .Аҳаджонович, Қ. С. (2022). БЎЛҒУСИ ҲАРБИЙ МУТАХАССИСЛАРИДА ВАТАНГА ФИДОИЙЛИК ТУШУНЧАЛАРИНИ СИНГДИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ. PEDAGOG, 5(6), 731-750.
11. Хакимович, J. B., & Axadjonovich, Q.C.S. (2022). VATANPARVARLIK. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(13), 723-726.
12. Mansurjonovich, M. B., & Axadjonovich, Q. C. S. (2022). HARBIY PEDOGOGIKA VA HARBIY PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH MASALALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(13), 744-749.